

ALISHER NAVOIYNING „XAMSAT UL-MUTAHAYYIRIN“ASARIDA
JOMIY TIMSOLI TALQINI
Mutaxassislik: Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) 2-kurs
Tinchlikova Nilufar

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiyning buyuk ustoz, salafi, shoir Hazrat Jomiyga bag'ishlangan beqiyos ehtiromi haqida so'z boradi.

Alisher Navoiy butun hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati davomida ko'plab insonlarni o'ziga ustoz deb bilgan, g'oyatda hurmat bilan qaragan, qadrlagan, e'zozlagan ulardan ehtirom ko'rgan. Ammo ular ichida Navoiy faqat bir insonni o'ziga „pir“ deb bilgan, ota sifatida ulug'lagan, do'st sifatida ardoqlagan, ijod yo'lida maslakdosh deb bilgan. Shubhasiz, bu inson hazrat Abdurahmon Jomiy bo'lgan:

*Fayzi gadovu shoh aro muntashir,
Xizmatig'a shohu gado muftaxir.*

Navoiy 1494-yil „Xamsat ul-mutahayyirin“ („Hayratlanganlar Xamsasi“) asarini aynan Abdurahmon Jomiyga bag'ishlab yozadi. Asar haqida so'z yuritishdan oldin Alisher Navoiy bilan mashhur shoir, mutafakkir va mutasavvif sifatida keng tanilgan ulug' bir zot –forsiy adabiyotning mumtoz namunasi Abdurahmon Jomiy o'rtasidagi do'stona munosabatlar haqida muxtasar to'xtalish lozim.¹

Buyuk shoir ustoz Jomiyning Maxdumi Nuran, ya'ni Nurli Maxdum, deb atagan. Akademik Aziz Qayumov qayd etganidek: „Alisher tug'ilgan yili Abdurahmon jomiy 27 yoshli yigit edi. Alisher Navoiy shoir sifatida tanilganda, Jomiy o'z davrining mashhur shoiri va mutafakkiri sifatida dong taratgan mo'ysafid edi. Navoiy ustozini ta'riflab juda ko'p she'rlar bitgan, va o'zining do'sti, ustoz, maslahatgo'yi deb bilgan“.

Alisher Navoiyning „Xamsat ul-mutahayyirin“ asari ana shu faol adabiy hamkorlikning o'ziga xos mevasidir. Asar avvalida Navoiy: „...chun bu risola xayolga keldi, binosin bir muqaddima va uch maqola va bir xotimag'a qo'yuldi va bu besh daf'a so'zgakim, o'quvchilarga ko'p mujibi tahayyur erdi- „Xamsat ul-mutahayyirin“ tasmiya qilindi“, deb ta'kidlaydi. Chunki asarga aynan „Hayratlanganlar Xamsasi (beshligi) degan mazmunda nom qo'yilishidan maqsad-uning „Xamsa“, ya'ni besh bo'limdan iborat ekanini bildirish bo'lgan. Chindan ham, „Xamsat ul-mutahayyirin“ asari muqaddima, uch maqolat va xotimadan tashkil topgan. Muqaddimada Jomiyning nasabi, tug'ilishi, tarbiyalanishi, tahsil olishi va olim hamda shoir bo'lib yetishishi haqida so'z boradi. Birinchi maqolat 15 lavhadan iborat bo'lib, Jomiyning ma'naviy dunyosi, badiiy ijod yuzasidan yuritgan bahs-suhbatlari qalamga olingan. Ikkinchi maqolatda Navoiy va Jomiy yozishmalaridan namunalar keltirilgan. Uchinchi maqolat Navoiy va Jomiyning ijodiy hamkorligi, tasavvufga oid asarlar xususidagi suhbat hamdatavsiyalariga bag'ishlangan. Xotimada Jomiyning vafoti tafsilotlari bayon etilgan. E'tiborli jihati shundaki, asarda Navoiyning Jomiy vafotiga bag'ishlangan forsiyda yozilgan marsiyasi keltirilgan.

„Xamsat ul-mutahayyirin“da Jomiyga shunday ta'rif beriladi: „*Bu nav sohib davlati buzurgvor va bu yanglig' sohib kamoli nubuvvat kirdor bu xoksori parishon ro'zgorni azim*

¹ Акмал Саидов., „Хамсат ул-мутаҳаййирин“ асари –рус тилида. //Туркистон.-Т, 2016 йил 10 феврал //12-сон.

iltifotlari bila sarbaland va g'arib navozishlar bila arjumand qilib, abnoyi jinsim aro sarafroz, balki jinsi bashardin mumtoz qilur erdilar".

Bu yerda Navoiy ustozini: „Valiylikning oliy hazrati, Olloh sirlarini kashf etuvchisi, yashirin ishoralar va alohida sirlar olami, payg'ambarlar davomchisi sifatidagi alloma, tariqat elining peshvosi va imomi, muqaddas guruhning serg'ayrat arbobi va shayxul islomi, haq va dinning nuri"-deb ulug'laydi.

Jomiy she'riyat bilan doim shug'ullangan va san'atkorona mahoratini oshirib borgan. Navoiy ustozining adabiy faoliyati va hayot tarsi haqida turli voqealarni hikoya qilib o'tadi. Jomiy oddiy inson bo'lib, odmigina kiyinib yurgan. Uning odamlar orasida o'zini qanday tutishi haqida Navoiy „Xamsat ul-mutahayyirin"da quyidagilarni yozadi: „ Alarning kamoloti ovozasini eshitib, yiroq yo'llar qat qilib, muborak suhbatlariga musharraf bo'lurg'a kelganlar alarni ashob orasida g'oyat betayinlikdin mutlaqo tanimaslar erdikim, o'lturur-ko'parda, aytmoq-eshitmoq va yemak kiymakda o'zlari bila soyir mulozimlari orasida tafovut yo'q erdi. Kishi ulumi zohiridin va ma'naviydin bir mas'ala ilqo qilmag'uncha hargiz alardin ul qobiliyat va istiqroni ma'lum bo'lmadi".

Hazrat Navoiy Jomiyning umr yo'li bilan bog'liq ma'lumotlarni keltirib, uztozining Shohruh Mirzo zamonidan Abusaid zamonigacha Hirot shahrida yashaganligini aytadi. So'ng avliyo Sa'diddin Koshg'ariy mozori qoshida maskan tutadi. Shundan so'ng umrining oxirigacha shu yerda yashaydi.²

Asarning ikkinchi qismi, „Avvalg'i maqolot" deb atalib, hazrat Navoiy o'zi va ustozini o'rtasida bo'lib o'tgan qiziq va ibratli voqealar, ma'naviy suhbatlar xususida ma'lumot beradi. Jomiy Xusrav Dehlaviyning „Daryoyi abror"iga tatabbu tarzida yozilgan „Lujjat ul-asror" qasidasini yozadi va uni Navoiy e'tiboriga havola qiladi. Navoiy qasidani o'qib, g'oyat ta'sirlanadi va yo'lda unga javoban „Tuhfat ul-afkor" qasidasini yozganligi haqidagi voqea keltirilgan.

"Lujjat ul-asror" asari „Dengiz sirlar"i deb atalgan. Unda falsafiy masalalar bilan bir qatorda ijtimoiy mavzularda ham bahs yuritilgan. Alisher Navoiy bu qasida haqida so'z yuritib, uning Xusrav Dehlaviyning "Daryoyi abror" (yaxshilar daryosi) qasidasiga javobiya ekanligini uqtiradi. Shunisi diqqatga sazovorki, Jomiyning qasidasi, o'z navbatida, Alisher Navoiy "Tuhfat ul-afkor" (Fikrlar tuhfasini) qasidasining maydonga kelishiga sabab bo'lgan edi. Bu shunday go'zal qasida ediki, hatto Abdurahmon Jomiy uni "noyob ma'nolar va go'zal xayolotlar"ga boy qasida deb baholagan edi.

„Uchinchi maqolat"da Jomiy yaratgan asarlar ta'rifiga bag'ishlangan bo'lib, mazkur faslni jomiyshunoslikning poydevori deb aytish mumkin. Unda Jomiyning 38 asari nomi keltirilgan. „Xotima" da Navoiy ustozini Jomiy huzurida o'qigan asarlari ro'yxatini keltiradi. Shuningdek, Jomiyning xastaligi, vafoti, dafn qilinish tafsilotlari ham keltirib o'tiriladi. Abdurahmon Jomiy vafotidan bir yil keyin Navoiy ustozini qabri ustiga katta maqbara qurdiradi. Navoiy „Xamsat ul-mutahayyirin" asar so'nggida Jomiy vafotiga bag'ishlangan ta'rix keltiriladi. Ta'rix budurkim:

*Gavhari koni haqiqat, durri bahri ma'rifat,
K-o' ba haq.vosil shudu dar dil nabudash mosivoh,
Koshnfi sirri ilohiy bud beshak, z-on sabab*

² Дилнавоз Юсупова. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти ўқув қўлланма) /-Тошкент: <<Тамaddon >> нашриёти, 242-бет.

Gasht ta'rixi vafotash: «Koshifi sirri iloh

Mazmuni:

Haqiqat konining gavhari, ma'rifat daryosining durri,
Haqqa yetishdi va dilida boshqa narsa yo'q edi.
Ilohiy sirrning kashf etuvchisi edi, shu sababdan shaksiz,
Vafoti ta'rixi «koshifi -sirri iloh» bo'ldi.

Navoiy ta'rixida zikr etilgan „Koshifi sirri iloh” iborasi „U Olloh sirlarini kashf etuvchi, demakdir” ma'nosini anglatadi. Bundan shoir vafoti yili kelib chiqadi. Uning vafotiga yozilgan marsiya va ta'rixni o'z davrining mashhur notig'i Mavlono Husayn Voiz Koshifiy o'qiydi. Asarda Jomiyga atalgan marsiya ham keltirilgan.

Do'ston, dar hama fan nodirai olam ku?

Afzalu afsahi ajnosi bani odam ku?

Dar biyoboni tamannosh xaloyiq murdand,

*Ba davoi hama on Xizri Masihodam ku?*³

Mazmuni:

Do'stlar, hamma fanda olam yagonasi qani?

Odam bolalari jinsidan eng afzali, eng so'zga chechani qani?

Orzu biyobonida xaloyiq halok bo'ldi,

Hammaning davosi bo'lgan Masiho nafasli Xizr qani?

Navoiy va Jomiy buyuk asarlarini yozishga bir-birlarini hamisha ruhlantirib turganlar. Ularning samimiy munosabati, ustoz shogirdlik an'anasi va ulug' insoniy fazilatlari asrlar osha ibrat bo'lib kelmoqda.

Adabiyotlar

1. Dilnavoz Yusupova. O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti (o'quv qo'llanma) /- Toshkent: „Tamaddun” nashriyoti, 302-bet.
2. Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyirin. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 15-jild.- Toshkent. Fan, -B.99-260.
3. Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyirin. www.ziyo.uz.com.kutubxonasi
4. Akmal Saidov. „Xamsat ul-mutahayyirin” asari –rus tilida. //Turkiston.-T, 2016 yil 10 fevral //12-son.

³ Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyirin. www.ziyo.uz.com.kutubxonasi 62-bet.